

O‘ZBEK TILIDA SINONIMLARNING MA’NO DARAJALANISHI : LEKSIK SEMANTIK TAHLILI

Muxtorova Charos Salimjonovna

*Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek Tili Va Adabiyoti
Universiteti 2 – Bosqich Talabasi.*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi sinonimlarning ma’no darajalanishi leksik semantik jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda sinonimik qatorlarga kiruvchi so‘zlarning semantik kuchi, hissiy ta’sir darajasi va uslubiy qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilinib, ularni darajalar bo‘yicha tartiblash tamoyili asoslab berilgan.*

Maqolada turli sinonimik qatorlar misollar orqali izchil tahlil qilingan bo‘lib, ularning ma’no kuchayishi, emotsional yuklamasi va uslubiy farqlari asosida pog‘onalanishi ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tilidagi sinonimlar ma’no nozikliklari jihatidan muayyan tizimga ega ekanini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv so‘z boyligini chuqurroq o‘rganish, nutq madaniyatini yuksaltirish va leksik tahlil usullarini boyitishga xizmat qiladi.

Maqolaning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda sinonimlarni darajalanish tamoyili asosida ilmiy tayangan holda o‘rganish bo‘yicha yangi yondashuv taklif etilgan.

KALIT SO‘ZLAR : *Sinonimiya, leksik-semantik tahlil, ma’no darajalanishi, semantic intensivlik, emotsional-ekspressivlik, uslubiy qatlam, sinonimik qator, ma’no nozikliklari, til boyligi, nutq madaniyati.*

ANNOTATION: *This article examines the semantic gradation of synonyms in the Uzbek language from a lexic-semantic perspective. The research analyzes the semantic intensity, emotional expressiveness, and stylistic features of words included in synonymic series, provides a theoretical basis for arranging them according to levels of meaning.*

The article presents a systematic analysis of various synonymic groups, demonstrating their semantic strengthening, emotional load, and stylistic differences through practical examples.

The findings confirm that synonyms in the Uzbek language possess a specific system of semantic nuances. This approach contributes to a deeper understanding of vocabularing, the enhancement of speech culture, and the enrichment of methods used in lexical analysis.

The scientific value of the article lies in the fact that it introduces a new theoretical approach to studying synonyms based on the principle of semantic gradation.

KEYWORDS : *Synonymy, lexical-semantic analysis, semantic gradation, semantic intensity, emotional expressiveness, stylistic layer, synonymic series, semantic nuances, vocabulary richness, speech culture.*

Kirish:

Til- inson tafakkuri va his-tuyg‘ularining eng nozik qatlamlarini ifodalovchi murakkab tizimdir. Shu bois tildagi har bir so‘zning o‘ziga xos ma’no soyasi, ifodaviy kuchi va uslubiy ohangi mavjud. Tilshunoslikning leksikologiya sohasi ana shunday nozikliklarni o‘rganadi. Shular orasida sinonimiya hodisasi alohida o‘rin tutadi, chunki u tildagi ma’no boyligini, ifoda imkoniyatlarini va nutq madaniyatining rang-barangligini ta’minlaydi.

O‘zbek tilida sinonimlarning faqat “bir ma’noli so‘zlar” sifatida talqin etilishi ularning ichki ma’no darajasi (intensivlik)ni yetarli ochib bermaydi. Aslida sinonimlar o‘zaro semantik kuch, emotsional yuklama va uslubiy qatlam jihatidan farqlanadi. Shu sababli ularni ma’no darajalanishi nuqtayi nazaridan tahlil qilish tilshunoslikda yangi va muhim yondashuvdir.

Maqolaning maqsadi — o‘zbek tilidagi sinonimik qatorlarning ma’no kuchi, emotsional ifoda va uslubiy xususiyatlari asosida tahlil qilish va darajalanish tamoyiliga asoslangan nazariy yondashuvni taklif etishdir.

Asosiy qism:

1. Sinonimiya hodisasi va darajalanish mohiyati

Sinonimlar shaklan turlicha, lekin ma’nosi jihatidan yaqin yoki o‘xshash bo‘lgan so‘zlardir. Ular tilning boyligini ko‘rsatuvchi asosiy birliklardan biridir. Masalan: katta ~ buyuk ~ ulug‘, yaxshi ~ zo‘r ~ a‘lo, tez ~ chaqqon ~ ildam kabi qatorlarda ma’no o‘xshash, ammo kuchi turlichadir.

Darajalanish tamoyili — so‘zlarning semantik intensivlik bo‘yicha joylashishidir. Bu tamoyil sinonimlarning ma’no noziklarini aniqlash va ularni ilmiy tizimda tasniflash imkonini beradi.

2. Darajalanish mezonlari

Sinonimlarni darajalashda uchta asosiy mezon qo‘llanadi:

1. Semantik intensivlik – so‘z ma’nosining kuchi yoki darajasi;
2. Emotsional-ekspressivlik – so‘zning hissiy ta’sir kuchi;
3. Uslubiy qatlam – so‘zning adabiy, og‘zaki yoki poetik nutqqa mansubligi.

Bu mezonlar asosida sinonimik qatorlar tahlil qilinadi va pog‘onalanadi.

3. Amaliy tahlil

Quyida bir nechta sinonimik qatorlar intensivlik darajasiga ko‘ra izohlari berilgan holda joylashtirildi.

Sinonimik qator	1-daraja	2-daraja	3-daraja	Izoh
Ho‘l – nam -shalabbo	ho‘l	nam	shalabbo	Semantik kuchayish: ho‘l-eng oddiy , shalabbo-haddan tashqari ho‘l holatni bildiradi.
Katta – buyuk -ulug’	katta	buyuk	ulug’	“ulug’” diniy-adabiy uslubda ko’proq yuksak hurmatni bildirib keladi.
Tez - chaqqon - ildam	tez	chaqqon	ildam	Ildam tezlikning eng faol yuqori darajasini bildiradi.
Sokin – tinch - osoyishta	tinch	sokin	osoyishta	Emotsional sokinlikdan ichki osoyishtalikka o’tish.
Yomon – achinarli - dahshatli	yomon	achinarli	dahshatli	Hissiy kuchayishning ketma-ket ortib borishini bildiradi.
Kulish – jilmayish - qahqaha	jilmayish	kulish	qahqaha	Harakat kuchi va hissiy ohang bo’yicha oshib borishi.
Qahr –	qahr	g’azab	jahl	“jahl”-

g'azab - jahl				og'zaki nutqda eng kuchli hissiy portlashni bildiradi.
Go'zal – chiroyli - dilrabo	chiroyli	go'zal	dilrabo	Emotsiona - estetik jihatdan “dilrabo”eng yuqori daraja va ko'proq badiiy uslubga xos.
Quruq – suvsiz -qoq	quruq	suvsiz	qoq	“Qoq”to'liq qurigan,kuchli darajadagi holatni bildiradi.
Og'ir – mashaqqatli - azobli	og'ir	mashaqqatli	azobli	Semantik kuchayish natijasida emotsionallik ortib borishi.
Salqin – muzdek - qahraton	salqin	muzdek	qahraton	“Qahraton” o'ta qattiq sovuq ma'nosida kelib ,hissiy- emotsionalligi kuchliroq.

Sinonimlarning leksik-semantik tahlili

1).Denotativ-semantik tahlil

So'zning lug'aviy ma'nosi aniqlanadi.Masalan,bahaybat - “juda katta”, lekin qo'shimcha semasi salbiy.

2).Konnotativ bo'yoq

So'zning hissiy ekspressiv qiymati baholanadi . Masalan,maftunkor – juda go'zal,jiloli,o'ziga tortuvchi emotsional bo'yoqli.

3).Uslubiy qatlam

So'zning nutq uslubi aniqlanadi: ilmiy, badiiy, publisistik, og'zaki. Masalan, "latofatli" ko'proq badiiy uslubga xos.

4). Kontekstual ma'no

So'z gap ichida qanday qo'shimcha ma'no hosil qilishi ko'riladi. Masalan: buyuk inson - ruhiy, ma'naviy kattalik ma'nosi ya'ni to'g'ri qo'llangan, lekin buyuk uy – deyilganda ma'no biroz g'alizroq.

Sinonimlarning ma'no darajalanishining ko'pgina amaliy ahamiyatlari mavjud. Misol uchun:

- Badiiy matnda obraz yaratadi
- Ilmiy matnda aniq termin tanlashda yordam beradi
- Og'zaki nutqda ta'sirchanlikni oshiradi
- O'qituvchilarga tilni o'rgatishda muhim metodik asos bo'ladi.

Demak, sinonimlarning semantik darajalanganligi – tilning boyligini ko'rsatuvchi muhim hodisadir.

4. Tahlil natijalari

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi sinonimlar ma'no darajasi bo'yicha tizimli xususiyatga ega. Ba'zi qatorlarda kuchayish miqdoriy, boshqalarda esa hissiy yoki estetik yo'nalishda kechadi. So'zlarning uslubiy qatlamga tegishlilik ham darajalanishga ta'sir qiladi: adabiy so'zlar odatda neytral, og'zaki yoki poetik so'zlar esa kuchli emotsional yukga ega bo'ladi. Bu esa sinonimlarning semantik pog'onalarini aniqlash metodini ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Ushbu maqolamda, sinonimik qatorlar semantik intensivlik mezoni asosida tizimli tahlil qilindi. Ilk bor o'zbek tilidagi ayrim sinonimik birliklarning darajalanish tamoyili uch pog'onali model shaklida ko'rsatildi:

1. Neytral ma'no (asosiy holat)
2. Kuchaygan ma'no (yarim ekspressiv holat)
3. Maksimal ma'no (emotsional-ekspressiv holat)

Bundan tashqari, sinonimlar orasidagi ma'no nuanslari ya'ni ular orasidagi nozik farqlarini aniqlashda semantik intensivlikning qo'llanishi yangicha ya'ni o'zgacha yondashuv sifatida ilgari surildi. Bu yondashuv o'zbek tilshunosligida sinonimlar tizimini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi deb o'ylayman.

Xolosa:

O'zbek tili sinonimik tizimi nafaqat leksik boylikni, balki, xalq tafakkurining nozik ifodalarini ham mujassam etadi. Tilimizdagi sinonimlarning ma'no darajalanishi orqali tilning semantik boyligi, obrazlilik darajasi va ta'sirchanlik kuchi namoyon bo'ladi. Leksik - semantik tahlil esa sinonimlar orasidagi nozik farqlarni, uslubiy ranglarni va semantik

darajalarni aniq ko'rsatib beradigan ilmiy metod hisoblanadi. Ushbu jarayon tilshunoslik, ta'lim jarayoni va badiiy nutq uchun katta amaliy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A. *O'zbek tili leksikologiyasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Shamsiddinov R. *Tilshunoslik asoslari.* – Toshkent: Fan, 2020.
3. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Jumaniyozova M. *Sinonimiya va antonimiya masalalari.* – Samarqand, 2021.
5. Xolmurodov O. *Nutq madaniyati va til boyligi.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.